

**O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTON EKSPORT TARTIBINING O'XSHASH VA FARQLI JIHALARI.****Ibragimova Munisa Xakim qizi.**

Termiz davlat universiteti

Yuridik fakultet (Yurisprudensiya ta'lim yo'nalishi) talabasi

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada O'zbekiston va Qozog'iston eksport faoliyatining so'nggi yillardagi tendensiyalari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda O'zbekiston eksportida diversifikatsiya jarayoni, xizmatlar eksportining o'sishi va savdo sheriklari geografiasining kengayishi kuzatilgani ta'kidlanadi. Shu bilan birga, asosiy eksport tushumlarining xomashyo mahsulotlariga tayanib qolayotgani iqtisodiyotning tashqi bozorlardagi tebranishlarga sezgirligini ko'rsatadi. Qozog'iston eksporti energiya resurslari, metall va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga asoslangan bo'lib, O'zbekiston bilan savdo munosabatlarida muhim rol o'ynaydi. Maqolada ikki mamlakat eksport tizimining o'xshash va farqli jihatlari, savdo sheriklarining geografik kengayishi, xizmatlar eksportining o'sish tendensiyalari, xomashyo qaramligi hamda nazorat-litsenziya mexanizmlari tahlil qilinadi. Olingan natijalar iqtisodiy siyosatni shakllantirish va eksport strategiyasini optimallashtirishga amaliy hissa qo'shadi.

**Kalit so'zlar**

O'zbekiston eksporti. Qozog'iston eksporti. Tashqi savdo faoliyati. Eksport diversifikatsiyasi. Xomashyo qaramligi. Xizmatlar eksporti. Savdo sheriklari geografiasini. Eksport nazorati va litsenziyalash

**Kirish**

So'nggi yillarda O'zbekiston tashqi savdo faoliyatida sezilarli tarkibiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xizmatlar eksportining o'sishi va savdo sheriklari geografiasining kengayib borishi umumiy eksportning barqaror o'sishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, eksport daromadlarining asosiy qismini xomashyo mahsulotlari tashkil etishi iqtisodiyotning tashqi tebranishlarga yuqori darajada bog'liq bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Mazkur maqola aynan ushbu ikki yo'nalish –

diversifikatsiya jarayoni va xomashyo sektoriga qaramlikning saqlanishini ilmiy tahlil qiladi.

O‘zbekiston eksport tizimi oxirgi yillarda bosqichma-bosqich diversifikatsiyalanib borayotgan bo‘lsa-da, tashqi savdodan olinadigan daromadlarning asosiy qismi hanz xomashyo segmentiga tayanib qolmoqda. Markaziy bankning tahliliy sharhida qayd etilishicha, xizmatlar eksportining ortib borishi va savdo sheriklari geografiasining kengayishi natijasida umumiy eksport ko‘rsatkichlari o‘shishda davom etmoqda. Xususan, AQSh, Fransiya, BAA va Ozarbayjonga jo‘natilayotgan yuklar hajmi oshgani, Rossiya, Xitoy, Qozog‘iston va Turkiya kabi an‘anaviy yo‘nalishlarga nisbatan qaramlik darajasining pasayayotgani kuzatiladi. Ammo eksport tushumlarining qariyb uchdan ikki qismini xomashyo toifasidagi mahsulotlar tashkil qilayotgani ushbu jarayonning asosiy cheklovlaridan biri hisoblanadi.

## **O‘zbekiston eksporti haqida statistika va ma‘lumotlar.**

2024-yilda O‘zbekistonning eksport hajmi \$26.95 milliardga yetgan. 2025-yil yanvar–iyul oylarida esa eksport hajmi  $\approx$  \$20.11 milliard bo‘lgan, bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan +34.9% o‘shishni ko‘rsatadi. Eksport tarkibida eng ko‘p bo‘lgan yo‘nalishlar: sanoat mahsulotlari, oziq-ovqat/agrar tovarlar, kimyoviy mahsulotlar, tayyor mahsulotlar, xususan oltin eksporti muhim o‘rin egallaydi. 2025-yilda ayrim aniq agro-mahsulotlar eksporti sezilarli o‘ydi: masalan, yeryong‘oq eksporti yanvar–fevralda oldingi yilga nisbatan 47,6% ga oshdi. ; shuningdek, shaftoli 2025-yilning birinchi yarmida 2,2 baravarga oshgan. Asosiy eksport yo‘nalishlari va davlat-bozorlari orasida: sanoat mahsulotlari, agro-mahsulotlar, xomashyo (masalan, ba‘zi oziq-ovqat, meva-sabzavot, yog‘lar va boshqalar).

Natijada O‘zbekiston eksporti 2024–2025-yillarda oshish sur‘atida; eksport strukturi sanoat + agro + xomashyo/gold (va boshqa resurslar) kombinatsiyasidan iborat.<sup>1</sup>

Qozog‘iston eksportiga to‘xtaladigan bo‘lsak O‘zbekiston bilan savdo va yetkazib berish holati 2024-yilda Qozog‘istondan O‘zbekiston importi (ya‘ni Qozog‘iston eksporti O‘zbekiston bo‘yicha)  $\approx$  \$2.83 milliardni tashkil qilgan. Bu eksport tarkibida asosiy tovarlar: don / qishloq-xo‘jaligi mahsulotlari, temir va po‘lat, yog‘ va yog‘-mahsulotlari, neft / mineral yoqilg‘i mahsulotlari, metall rudalari, alyuminiy va metall mahsulotlari, mashina-uskunalar, elektron jihozlar va boshqalar bor. Masalan, 2024-yilda Qozog‘istondan O‘zbekiston ga eksport qilingan tovarlar tarkibida: don / g‘alla

<sup>1</sup> UzDaily – O‘zbekistonning tashqi savdo va eksport statistikasi, 2024–2025-yillar. UzDaily: Uzbekistan’s foreign trade turnover reached US\$6.59 billion in 2024

mahsulotlari, temir — po‘lat, metall rudalari, metall chiqindilari, yog‘lar va yog‘ mahsulotlari ham ahamiyatli. 2024 yilgacha bo‘lgan 4 yillik davrda (2020–2023) Qozog‘istondan O‘zbekiston ga eksport qiymati ma‘lumotlariga ko‘ra, bu davrda jami  $\approx$  \$11.5 milliard eksport amalga oshirilgan.


Natijada Qozog‘iston eksporti tarkibida xomashyo (don, mineral/metallar), sanoat mahsulotlari va agrar tovarlar muhim; O‘zbekiston ulardan sezilarli miqdorda import qiluvchi davlat.

O‘zbekiston va Qozog‘iston savdo munosabatlari va global eksportdagi roli. 2024-yilda O‘zbekiston eksportidagi asosiy yo‘nalishlardan biri — Qozog‘iston bo‘lib, 2025-yil yanvar–avgustda O‘zbekistonning Qozog‘istonga eksporti  $\approx$  \$910.8 million ni tashkil qilgan. Biroq, oxirgi yillarda Qozog‘iston O‘zbekiston eksportida ulushi pasaygan: 2013-yilda Qozog‘iston O‘zbekiston eksportida  $\sim$ 14.5% ulushga ega bo‘lgan, bugungi kunda esa  $\sim$ 5.7% ga tushgan deb yoziladi. 2024–2025-yillarda tomonlar o‘rtasida savdo aylanmasi oshgan; lekin balansda Qozog‘istondan O‘zbekiston importi O‘zbekiston eksportidan yuqori — ya’ni Qozog‘iston eksporti biroz yuqiroq.

Misol: 2024-yilda Qozog‘istonning O‘zbekiston bo‘yicha eksporti  $\approx$  \$2.83 mld, O‘zbekistonning Qozog‘istonga eksporti esa  $\approx$  \$1.84 mld. <sup>2</sup>

## O‘zbekistonda xizmatlar eksportining o‘shish tendensiyalari

1-расм. Экспортнинг таркибий ҳажми, млрд. АҚШ долл.



2-расм. Умумий экспорт ўсишида товарлар ва хизматлар экспортларининг ҳиссаси, йиллик ҳисобда, ф.б.



Манба: Миллий статистика кўмитаси маълумотлари асосида Марказий банк ҳисоб-китоблари.

<sup>2</sup> TradingEconomics – Qozog‘iston eksporti statistikasi, O‘zbekiston bozoriga yo‘naltirilgan eksport.  
Kazakhstan exports to Uzbekistan

Eksport tarkibi (tovar, xizmatlar va oltin), shuningdek, xizmatlar va tovarlar ulushining eksportning umumiy o‘shiga qo‘shgan hissasi.

Eksportning izchil o‘shishi bir qator omillar – jahon bozorlaridagi qulay narx kon’yunkturasi, asosiy savdo hamkorlarining iqtisodiy faolligi, tashqi talabning ortishi hamda xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayishi bilan bog‘liq. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, tarkibiy siljishlar natijasida transport, turizm va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohalarida xizmatlar eksportining ulushi sezilarli darajada oshgan.

2018–2024-yillar mobaynida:

turizm xizmatlari eksporti 3,4 baravar,


IT xizmatlari eksporti 4 baravar,

transport xizmatlari eksporti esa 1,7 baravar o‘sgan.


Shu davrda tovar eksporti yiliga o‘rtacha 10% ga, xizmatlar eksporti esa 21% ga ortgan. 2022-yil o‘rtalaridan boshlab xizmatlar (oltin hisobga olinmagan holda) eksport o‘shining asosiy drayveri sifatida tovarlarni ortda qoldirgan.

## Savdo sheriklari geografiyasining kengayishi

3-расм. Олтинсиз жами экспорт ўсиш суръатига мамлакатлар ҳиссаси, ф.б.



4-расм. 2017 ва 2024 йилларда олтинсиз экспортда мамлакатлар улуши ўзгариши, ф.б.



Манба: Миллий статистика қўмитаси маълумотлари асосида Марказий банк ҳисоб-китоблари.


2017 va 2024-yillarda oltinsiz O‘zbekiston eksportining umumiy o‘shiga mamlakatlar hissasi / eksportdagi mamlakatlar ulushi.

Markaziy bankning qayd etishicha, O‘zbekistonning eksport geografiyasi sezilarli darajada kengaygan. 2017-yilda Rossiya, Xitoy, Qozog‘iston va Turkiyaning umumiy ulushi 64 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yil yakuniga kelib ushbu ko‘rsatkich 44 foizgacha qisqargan. Bu davlatlarga eksport hajmi oshishda davom etayotganiga qaramay, ularning eksport tarkibidagi nisbiy og‘irligi pasaygan.

Shu bilan birga, Xitoy, Qozog‘iston, Turkiya, Rossiya, Eron va Koreya Respublikasi bozorlariga yetkazib berilayotgan mahsulotlar o‘shir‘atlarining sekinlashgani qayd etiladi. Biroq mazkur davlatlar O‘zbekistonning asosiy eksport yo‘nalishlari sifatidagi strategik ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Aksincha, Fransiya, AQSh, BAA, Pokiston, Ozarbayjon kabi davlatlarga eksport hajmi ortgan. Ushbu jarayon uran, neft mahsulotlari, paxta ipi, o‘g‘itlar, mis, maishiy texnika hamda oziq-ovqat mahsulotlariga global talabning o‘shishi bilan izohlanadi.

5-расм. Экспорт номенклатурасидаги товарлар сони, *дона*



6-расм. Экспорт нархлари динамикаси, *йиллик, фоизда*



<sup>3</sup> Манба: Миллий статистика қўмитаси маълумотлари асосида Марказий банк ҳисоб-китоблари. **Экспорт номенклатураси ва экспорт нархлари индекси.**

Bundan tashqari, eksport nomenklaturasining kengaygani ham muhim ko‘rsatkich sifatida e’tirof etiladi: 2017-yilda 2245 turdagi mahsulot eksport qilingan bo‘lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 4359 taga yetgan.

Bugungi kunda eksportga quyidagi tarmoqlar bo‘yicha keng assortiment taklif etilmoqda:

300 dan ortiq oziq-ovqat mahsulotlari (dukkaklilar va un mahsulotlari ustun),

<sup>3</sup> O‘zbekiston eksporti yanada diversifikatsiyalanyapti, ammo xomashyoga bog‘liqligicha qolmoqda – O‘zbekiston yangiliklari – Gazeta <https://www.gazeta.uz/oz/2025/11/05/export/>

400 ga yaqin kimyo sanoati mahsulotlari,  
300 ga yaqin tayyor to'qimachilik buyumlari,  
180 dan ziyod metall buyumlari,  
780 dan ortiq turdagi mashina va uskunalari, jumladan maishiy texnika.

## **Xomashyo eksportiga qaramlik xavfi**

Markaziy bank fikriga ko'ra, eksport narxlarining yuqoriligi asosan jahon bozorlaridagi narxlarining yuqori bo'lishi bilan bog'liq. 2024–2025-yillarda eksport narxlarini indeks o'rtacha 35 foizga teng bo'lishi prognoz qilinmoqda, bu esa avvalgi yillarga nisbatan ancha yuqori ko'rsatkichdir.

Biroq eksportning katta qismi xomashyo va yarim tayyor mahsulotlarga bog'langanligi tashqi savdoni jahon narxlarining tebranishiga sezgir qiladi. 2021-yildan 2025-yilning birinchi yarmigacha eksport tarkibida xomashyo ulushi taxminan 66 foiz atrofida shakllangan.

Shu bilan birga, O'zbekiston savdo murakkabligi indeksi bo'yicha mintaqadagi ko'plab davlatlarga nisbatan ustunlikka ega: 2017-yildagi 78-o'ringan 2023-yilda 66-o'ringa ko'tarilgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning yanvar–sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasi 59,8 mlrd dollarni (+22,9%) tashkil qilgan. Eksport 33,3 foizga, import esa 15,6 foizga oshgan. Bu o'sish asosan oltin va xizmatlar eksportining ortishi, shuningdek Xitoy, Rossiya, BAA, Afg'oniston va Hindiston bilan savdo hajmining kengayishi hisobiga yuzaga kelgan.


## **Qozog'iston eksporti.**

Qozog'istonning asosiy eksport tovarlari qatoriga neft xomashyosi, tabiiy gaz, uran, mis, ferroqotishmalar, bug'doy va boshqa metallar va ularning konsentratlari kiradi. 2021-yil yanvar-oktabr oylarida eksportning sezilarli darajada oshishi kuzatilgan, xususan, qayta ishlangan mahsulotlar eksporti 24,4 foizga ko'payib, 15,5 milliard dollarga yetgan.

Asosiy eksport mahsulotlari energiya resurslari hisoblanadi yani neft xomashyosi, tabiiy gaz, neft mahsulotlari va uran. Metall va qishloq xo'jaligi mahsulotlari mis va mis konsentratlari, ferroqotishmalar, qimmatbaho metallar va bug'doy. Eksportning o'sishi 2021-yil yanvar-oktabr oylarida Qozog'iston eksporti 23,5 foizga o'sib, 49,1

milliard dollarga yetgan. Aynan shu davrda qayta ishlangan mahsulotlar eksporti 24,4 foizga oshib, 15,5 milliard dollarni tashkil etgan.

## Qozog'iston iqtisodiyoti.



eksporti xaritasi, 2019-yil

**O‘zbekiston bilan savdoda, O‘zbekistonga Qozog‘istondan asosan bug‘doy, neft mahsulotlari, po‘lat, yengil avtomobillar, un va sement eksport qilinadi. O‘zbekiston esa Qozog‘istonga avtomobillar, meva-sabzavot mahsulotlari, tabiiy gaz va etilen polimerlari eksport qiladi.**

## Qozog‘iston O‘zbekistonga eksport qilgan neft mahsulotlari.

2023 yilda Qozog‘iston 90 million tonna neft qazib olgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich 2022 yilga nisbatan 6,9 foiz yuqoridir. Energetika vaziri Almasadam Satqaliyevning aytishicha, neft eksporti ham oshgan va 70,5 million tonnani tashkil etgan (109,6 foiz).

Qozog‘iston neftining asosiy qismi quvurlar orqali tashilgan bo‘lsa-da, temir yo‘l orqali ham eksport amalga oshirilgan:

Xitoyga — 1,2 million tonna,

O‘zbekistonga — 65 ming tonna.

<sup>4</sup> Qozog‘iston iqtisodiyoti - Vikipediya [https://uz.wikipedia.org/wiki/Qozog%CA%BBiston\\_iqtisodiyoti](https://uz.wikipedia.org/wiki/Qozog%CA%BBiston_iqtisodiyoti)

Shuningdek, Rossiya neftining Qozog‘iston hududi orqali tranziti davom etgan:

Xitoyga — 10 million tonna,

O‘zbekistonga — 150 ming tonna.

Bundan tashqari, “Drujba” quvuri orqali 1,2 million tonna neft tashish bo‘yicha kelishuvga erishilgan. Yana Boku–Tbilisi–Jayhon yo‘nalishida 2024 yilgacha 1,5 million tonna neftni yetkazib berish rejalashtirilgan<sup>5</sup>.

## **O‘zbekiston va Qozog‘iston eksportining o‘xshash jihatlari.**

Ikkala mamlakatda ham eksport operatsiyasi bojxona deklaratsiyasi (yoki eksport deklaratsiyasi) va tegishli hujjatlar taqdim etilishi kerak.

Tovar manbai (“origini”) haqidagi hujjat — ya’ni “sertifikat of origin” yoki deklaratsiya — ko‘plab hollarda eksport uchun talab qilinadi. Agar eksport qilinayotgan tovar maxsus tartibga solinadigan bo‘lsa (masalan: strategik xom ashyo, metallar, energetika mahsulotlari va boshqalar), har ikki mamlakatda litsenziya / eksport nazorati mexanizmlari mavjud. Tovar eksporti jarayonida shartnoma (kontrakt), to‘lov va transport hujjatlari, yuk deklaratsiyasi va yuk bilan birga jo‘natiladigan hujjatlar (invoice, packing list, bill of lading / airway waybill va hokazo) talab qilinadi.

## **O‘zbekiston va Qozog‘iston eksportining farqli jihatlari**

Eksport bojxona bojlari / to‘lovlar 2025-yil 1-iyuldan e‘tiboran 86 turdagi mahsulotlarga eksport boji joriy qilindi — masalan, xom charm, ipak, paxta tolasi, bug‘doy, mineral o‘g‘itlar, rangli metallar chiqindilari va boshqalar. Bojxona kodeksiga ko‘ra, eksport qilish uchun bojxona to‘lovi va / yoki boshqa tarif va natarif (non-tariff) choralari qo‘llanilishi mumkin; eksport qilinayotgan tovarlar “eksport” rejimiga qo‘yilishidan oldin bojxona va normativ talablar bajarilishi kerak.

Eksport nazorati va litsenziyalash 2018-yilgacha ayrim tovarlar bo‘yicha eksport shartnomalarini bojxona organlarida ro‘yxatga qo‘yish talab etilgan. Ammo 2018-yilda barcha mahsulotlar bo‘yicha bu talab bekor qilingan. Agar tovar eksport kontrol ro‘yhati ostida bo‘lsa, eksport litsenziyasi talab qilinadi.

---

<sup>5</sup> Qozog‘iston O‘zbekistonga eksport qilgan neft mahsulotlari haqida ma’lumot berdi

<https://kun.uz/news/2024/03/05/qozogiston-ozbekistonga-eksport-qilgan-neft-mahsulotlari-haqida-malumot-berdi>

Tovar turi bo'yicha cheklov va rag'batlar (struktura siyosati) 2025-yildagi farmonga ko'ra, strategik xom ashyo — paxta tolasi, mineral o'g'itlar, polimer xomashyosi, rangli metallar va boshqalar — bo'yicha eksport bojxonalari joriy qilinib, xom ashyo eksporti cheklovlari orqali mahalliy qayta ishlashni rag'batlantirish yo'lga qo'yildi.

Rasmiy qoidalarga ko'ra, eksport tashqi savdo-sanoat qonunchiligi va bojxona kodeksi asosida amalga oshiriladi; ba'zi tovarlar yoki mahsulotlar eksporti nazorat ro'yhati ostida bo'lishi mumkin.

Vaqtinchalik va preferensial tartiblar eksport-import va tranzit bo'yicha hujjatlar va ruxsatnomalarni yagona "Yagona darcha" tizimi orqali yuritish rejasi ilgari belgilangan. Eksport qilinadigan tovarlar uchun deklaratsiya topshirish, bojxona rasmiylashtiruvi va bojxona punktlaridan chiqarish kabi aniq tartib-qoidalar bojxona kodeksi bilan tartibga solingan.

Ikki davlat o'rtasidagi asosiy farqlarga sabab, O'zbekiston yangi farmonlar orqali — ayniqsa 2025-yilgi — eksport tartiblarini jahon savdo qoidalariga (masalan, World Trade Organization, WTO) moslashtirish va mahalliy qayta ishlash sanoatini rag'batlantirish istagida. Shu bois, xom ashyo eksportiga boj va cheklovlarni joriy qildi. Qozog'istonda esa eksport tartiblari asosan "bojxona + litsenziya / nazorat" tamoyillari ustida. Export control ro'yhati ostidagi mahsulotlar uchun litsenziya olish zaruriyati saqlanadi. Bu farqlar, asosan, milliy iqtisodiy siyosatlar (xomashyodan tayyor mahsulotga o'tish; internal sanoatni rivojlantirish; eksport nazorati) bilan izohlanadi<sup>6</sup>.

## Xulosa

So'nggi yillarda O'zbekiston va Qozog'iston eksport faoliyatida bir qator strukturaviy va strategik o'zgarishlar kuzatilmoqda. O'zbekistonning eksport tizimi bosqichma-bosqich diversifikatsiyalashmoqda, xususan xizmatlar sektori eksporti sezilarli darajada o'smoqda, yangi bozorlarga yo'nalishlar ochilmoqda va savdo sheriklari geografiyasi kengaymoqda. Shu bilan birga, eksport tushumlarining katta qismi hanuz xomashyo mahsulotlariga bog'langan bo'lib, iqtisodiyotning tashqi bozor narxlari tebranishlariga sezgirligini saqlab qolmoqda.

Qozog'iston eksporti esa asosan xomashyo va energiya resurslari, metall va agrar mahsulotlar tarkibidan iborat bo'lib, O'zbekiston ularning asosiy importyorlaridan biridir. Ikkala mamlakatning eksport jarayonlari asosiy hujjatlar va deklaratsiyalar,

<sup>6</sup> Trend.az – Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi savdo aylanmasi va eksport hajmlari. Kazakhstan exports to Uzbekistan total

shuningdek, strategik xomashyo bo'yicha nazorat mexanizmlari orqali tartibga solinadi. Shu bilan birga, O'zbekiston 2025-yilda xomashyo eksportini cheklash va qayta ishlashni rag'batlantirish siyosatini joriy qilgan, Qozog'istonda esa eksport nazorati asosan litsenziya va ro'yxatga olish tamoyillari orqali amalga oshiriladi.

Shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston eksportining diversifikatsiyalanishi va xizmatlar sektori o'sishi tashqi savdo daromadlarini barqarorlashtirishga xizmat qilsada, xomashyo qaramligi iqtisodiyotning global narx tebranishlariga ta'sirchanligini saqlab qolmoqda. Qozog'iston bilan savdo munosabatlarida esa, xomashyo va sanoat mahsulotlari bo'yicha o'zaro bog'liqlik, ikki mamlakatning iqtisodiy strategiyalari va geografik yaqinlik hisobiga muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijada, O'zbekistonning eksport siyosati va strukturaviy o'zgarishlari, xomashyo qaramligini kamaytirish va yangi bozorlarni jalb qilish orqali tashqi savdoni yanada barqarorlashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan strategiyani shakllantirish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

- UzDaily – O'zbekistonning tashqi savdo va eksport statistikasi, 2024–2025-yillar.
- UzDaily – 2025-yilning birinchi yarmi bo'yicha O'zbekiston eksporti. UzDaily: Uzbekistan's foreign trade turnover reaches US\$4.44 billion
- UzDaily: Uzbekistan's foreign trade turnover reached US\$6.59 billion in 2024
- O'zbekiston eksporti yanada diversifikatsiyalanyapti, ammo xomashyoga bog'liqligicha qolmoqda – O'zbekiston yangiliklari – Gazeta <https://www.gazeta.uz/oz/2025/11/05/export/>
- Qozog'iston iqtisodiyoti - Vikipediya [https://uz.wikipedia.org/wiki/Qozog%CA%BBiston\\_iqtisodiyoti](https://uz.wikipedia.org/wiki/Qozog%CA%BBiston_iqtisodiyoti)
- Qozog'iston O'zbekistonga eksport qilgan neft mahsulotlari haqida ma'lumot berdi <https://kun.uz/news/2024/03/05/qozogiston-ozbekistonga-eksport-qilgan-neft-mahsulotlari-haqida-malumot-berdi>
- TradingEconomics – Qozog'iston eksporti statistikasi, O'zbekiston bozoriga yo'naltirilgan eksport. Kazakhstan exports to Uzbekistan
- Trend.az – Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi savdo aylanmasi va eksport hajmlari. Kazakhstan exports to Uzbekistan total